

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

UDK:159.9:796.015.84

OB-HAVONING JISMONIY TARBIYA MASHG'ULOTLARGA TA'SIRI

Jurayev Vohidjon Muhammedovich

*Qo'qon davlat pedagogika instituti psixologiya fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.*

Annotatsiya. Ushbu maqolada sportchilarning mashg'ulotlar jarayonida iqlim munosabatlari, ob-havoning sportchilar organizmiga ta'siri to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Tayanch iboralar: Ob-havo, iqlim, xavo bosimi, akklimatizatsiya, gipoksiya, havo tarkibi.

Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida ob-havo va iqlim gigiyenasining ahamiyati juda katta bo'lib, havoning tarkibiy tuzilishi sportchilar organizmiga muntazam ravishda ta'sir ko'rsatadi.

Iqlim deb joyning geografik kengligi, rel'efi, dengiz satxidan balandligi, namlik va o'simliklarining bor yo'qligiga aloqador bo`lgan qo`p yillik ob-havo rejimiga aytildi.

Iqlim shart-sharoitlarining odam organizmiga ta'siri fiziologik funktsiyalarning mavsum sari o'zgarib turishi va bir iqlimi yillardan boshqasiga o'tilganida o'zgarishlar ro'y berishi bilan namoyon bo`ladi.

Asosiy iqlim omili yoki mazkur joy ob-havosiga xarakterli bo`lgan bir qancha omillarning birgalikda organizmga qanday ta'sir ko`rsatishini o'rnaish yo`li bilan turli iqlim zonalarining fiziologik xarakteristikasi tuziladi. Chunonchi sovuq fasl uchun sovqatish omili xarakterlidir.

Iqlimning mavsumiy xususiyatlari aholining turmush sanitariya sharoitlari hamda kasallanishiga ta'sir ko'rsatadi. Qanday bo`lmasin biror iqlim va yil faslidagi meteorologik omillarning bir qancha kasalliklarning o'tishiga, ularning og'ir-engilligiga va o'lim xollariga ta'sir qilishi aniqlangan.

Ma'lumki, iqlim shart-sharoitlari aholining infektsion kasalliklar bilan og'rishiga ham kattagina ta'sir ko'rsatadi. Infektsion kasalliklarning qo'zg'atuvchilari va yuqtiruvchilariga aloqador biologik vaziyat iqlim shart-sharoitlariga ko`p jixatdan bog'liq bo`ladi.

Ba'zi joylar (tog'li va tog' oldi zonalari)ning iqlim shart-sharoitlari odam organizmiga yaxshi ta'sir ko'rsatadi: moddalar almashinushi kuchayadi, yurak-qon

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

tomirlar sistemasi va nafas organlarining funksiyasi yaxshilanadi, qon tarkibi yaxshiladai.

Davolash va sog'lomlashtirish maqsadlarida tashqi muxitning meteorologik shart-sharoitlari va iqlim xususiyatlaridan keng foydalaniladi. Respublikamizda iqlim omillarining odamlar salomatligiga ko'rsatadigan sal'biy ta'sirini imkonи boricha kamaytirish va ijobjiy ta'siridan to`la-to`kis foydalanishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Aholi yashaydigan joylarni planlashtirish, turar joylar, jamoat, sanoat, bino va inshootlari loyihamalarini ko`rib chiqish, ovqatlanish ratsionlarini ishlab chiqish, kasalliklarni oldini olish yuzasidan profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirishga taalluqli gigiyena masalalarini xal qilishda iqlim shart-sharoitlari xisobga olinadi.

Mikroiqlim deganda cheklangan bo`shliqda sun`iy yo`l bilan yuzaga keltirilgan yoki tabiiy xususiyatlarga ko`ra qaror topgan iqlim shart-sharoitlari tushuniladi. Sun`iy yo`l bilan yaratilgan mikroiqlimga aholi punktlarining, berk binolar, kiyim bosh ostidagi bo`shliq mikroiqlimlari misol bo`la oladi. Tabiiy xususiyatlarga ko`ra qaror topgan mikroiqlimga atmosferaning erga yaqin qatlamidagi, o`rmon yoqasidagi yalanglik, tog` daralaridagi mikroiqlimlar misol bo`ladi.

Mikroiqlim odam organizmiga xar xil ta`sir ko`rsatadi. Chunonchi, shaxarlarda odamlarning salomatligi uchun noqulay bo`lgan bir qancha ta`surotlar mavjud: yilning issiq paytlarida g'ishtli binolar va asfal't yotqizilgan ko`chalar oftobda qizib, qo`shimcha issiqlik manbai bo`lib qoladi; shaxarlarda havoning tutun bilan ifloslanishi natijasida quyosh radiatsiyasi intensivligi susayadi va biologik jixatdan muhim bo`lgan ul`trabinafsha nurlar keskin kamayib ketadi.

Mana shuning uchun ham qurilish ustidan olib boriladigan profilaktik sanitariya nazorati joy rel'efidan to`g'ri foydalanish, shaxar teritoriyasida daraxtzorlarni barpo etish, ko`chalarni to`g'ri o`tkazish, ularni tabiiy yorug'lik bilan yoritish va shomollatib turish masalalari, ko`chalarga yotqizish uchun tegishli materiallarni tanlash va boshqa masalalar aholi punkti mikroiqlimini yaxshilash maqsadida gigiyenik jihatdan ayniqsa muhim ahamiyatga egadir.

Odamga eng qulay shart-sharoitlarni yaratib berish va uni noqulay iqlim ta`sirlaridan saqlash uchun bir qancha xollarda mikroiqlim sun`iy yo`l bilan yaratiladi.

Iqlimga moslashish (akklimatizatsiya) - odam organizmining yangi iqlim sharoitiga ko`nikish qobiliyati - akklimatizatsiya deyiladi. Akklimatizatsiya muammosi xar-xil sharoitlari bilan farq qiladigan yangi qator tumanlarning o`zlashtirilishi tufayli dolzarb ahamiyatga ega bo`lib qoladi. Bu mamlakatning xar-xil viloyatlarida, chet-ellarda musobaqa o`tkazuvchi sportsmenlar uchun ham zarur.

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

Akklimatizatsiya murakkab ijtimoiy-biologik jarayon bo`lib, o`zgarib qolgan iqlim sharoitlarida odamning kayf-ruxiyatini yaxshilaydigan va ish qobiliyatini oshiradigan moslashish reaktsiyalarining vujudga kelishi bilan cheklanmaydi. Iqlimga moslashish degan tushunchaga, avvalo, tashqi muxitni faol ravishda o`zgartirish odam uchun yangi iqlim sharoitlarida tashqi muxitning noqulay ta`sirlarini susaytira oladigan yoki bartaraf eta oladigan mexnat va turmush shart-sharoitlarini yaratish kiradi.

Xulosa o`rnida shuni ta`kidlash joizki, odamlar o`zlari uchun yangi iqlim sharoitlariga ko`chib o`tganlarida psixologik omilning ahamiyati borligini xisobga olib, ularning maishiy va madaniy talablarini qondirishga aloxidae`tibor bermoq zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A.G'ofurov. Jismoniy tarbiya gigiyenasi va sportning tibbiy-fiziologik asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent 2022 y.
2. Jurayev, Vohidjon, and Yoqubjon Ermatov. "BASICS OF ADJUSTING PHYSICAL EXERCISES FOR THE AGE OF STUDENTS WHEN INTRODUCING A HEALTHY LIFESTYLE TO STUDENTS IN THE GENERAL SECONDARY EDUCATION SYSTEM." International Bulletin of Applied Science and Technology 3.5 (2023): 1042-1045.
3. Jurayev, Vohidjon. "SPORTCHINING FAOLIYAT SAMARADORLIGIDA DA'VOGARLIK DARAJASI AHAMIYATINI EMPIRIK NATIJALARI TAHLILI." Science and innovation in the education system 2.7 (2023): 106-112.
4. Jurayev, Vohidjon. "SPORTCHINING FAOLIYAT SAMARADORLIGIDA DA'VOGARLIK DARAJASI AHAMIYATINI EMPIRIK NATIJALARI TAHLILI." Science and innovation in the education system 2.7 (2023): 106-112.
5. Жураев, Вохиджон Мухаммедович. "СПОРЧИЛАРНИНГ ДАҶВОГАРЛИК ДАРАЖАСИ ВА ИРОДАВИЙ СИФАТЛАРИНИНГ ПСИХОЛГИК ХУСУСИЯТЛАРИ." Academic research in educational sciences 4.TMA Conference (2023): 894-900.
6. Mukhammedovich, Jurayev Vohidjon. "Psychological Foundations of Willpower in the Formation of Competition Motivation in Athletes." Central asian journal of literature, philosophy and culture 3.11 (2022): 315-318.
7. Tahirjonovich, Arabboyev Kahramon. "Matters of physical education in kaikous"“QABUSNAMA”." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.1 (2023): 223-226.

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

8. Rashitovna, Muratova Gulnara, and Arabboev Qahramon Tokhirzhonovich. "Features Of Physical Education Of Preschoolers." International Journal of Early Childhood Special Education 15.2 (2023).
9. Араббоев, Қ. Т. "Жисмоний тарбия дарсларида талабалар ўқув-спорт фаоллигини оширишда шахсга йўналтирилган таълим турларининг ўрни." Фан-спортга Учредители: Узбекский государственный университет физической культуры и спорта 6: 68-71.
10. Arabboyev, Qahramon. "Madaniy me'roslarimizda jismoniy tarbiya masalalari." Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi 6 (2023): 643-648.
11. Muratova, G. R., and Q. T. Arabboyev. "The role of sport in people's health." International Journal of Early Childhood Special Education 14 (2022).
12. Muratova, Gulnara Rashitovna. "PEDAGOGICAL TECHNOLOGY OF PHYSICAL EDUCATION FOR STUDENTS BASED ON THE POSSIBILITY OF AEROBICS." INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION". Vol. 3. No. 1. 2024.
13. Rashitovna, Muratova Gulnara, and Atadjanov Asadbek Baxtiyor o'g'li. "IMPLEMENTATION OF NEW TECHNOLOGIES IN THE AEROBICS PROGRAM FOR FEMALE STUDENTS OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 13.01 (2024): 38-41.
14. Муратова, Гулнара Рашитовна. "История древней и современной лёгкой атлетики." Ученый XXI века 20 (2016).
15. Muratova, G. R. "MODERN REQUIREMENTS FOR THE CREATION OF EDUCATIONAL PUBLICATIONS ON PHYSICAL EDUCATION FOR SECONDARY SCHOOLS." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.5 (2023): 1-4.
16. Муратова, Гулнара Рашитовна. "УКРЕПЛЕНИЕ СОСТОЯНИЕ ОРГАНИЗМА ЧЕРЕЗ ЗАНЯТИЯ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРОЙ И СПОРТОМ." INTERNATIONAL CONFERENCE: PROBLEMS AND SCIENTIFIC SOLUTIONS.. Vol. 2. No. 7. 2023.
17. Makhmudovich, Gafurov Abdushokir. "Medical problems of sports selection and sports orientation." ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603 11.12 (2022): 313-318.

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

18. Abdumalikovich, Umarov Abdusamat. "Analysis Of The Paradigm Of The Principles Of Overcoming The Problems Of Productivity Of Researchers Conducting Research In The Field Of Physical Culture." Journal of Positive School Psychology (2023): 529-534.
19. Умаров, Абдусамат, and Махлиёхон Хожимуродова. "OILA VA NIKOH SHAROITIDA AYOLLAR SPORTINING MUAMMOLARI." Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. 3.6 (2023): 313-317.
20. Urinbaevna, Umarova Zulkumor, and Umarov Abdusamat Abdumalikovich. "THE IMPORTANCE OF TRAVEL AND TOURISM IN FORMING A HEALTHY LIFESTYLE IN HIGH SCHOOL STUDENTS." Open Access Repository 9.10 (2023): 1-7.
21. Abdumalikovich, Umarov Abdusamat, and Umarova Zulkumor Urinboyevna. "THE USE OF INNOVATIVE PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN IMPROVING THE QUALITY OF PHYSICAL EDUCATION LESSONS." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.11 (2023): 421-424.
22. Umarov, Abdusamat, and Layloxon Maxmudova. "AHOLINING TURLI QATLAMLARINI DAM OLISH MASKANLARI VA SOG'LOMLASHTIRUVCHI TADBIRLARINING AHAMIYATI." Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi 7 (2023): 726-731.